

# JAMOAT BINOLARI INTERYERI DIZAYNIDA MILLIYLIK G'OYALARI

*Nurnazarov Xudoyberdi Doniyorovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası*

*o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston*

*e-mail: [nurnazarovxudoyberdi@gmail.com](mailto:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com)*

***Annotasiya.** Insoniyat azal-azaldan go'zallikka intilib kelgan. Go'zallik insoniyatni barkamol, teran fikrlash sari yetaklaydi. Bu esa xar jixatdan sog'lom muxit yaralishini ta'minlaydi. San'atning asosiy vazifasi, u xox amaliy, xox tasviriy san'at bo'lsin, insonning estetik didini rivojlantirib, turli xil ruxiy zarbalardan xalos etish, yoxud ogoxlik sari yetaklashdir.*

***Kalit so'zlar:** go'zallik, interyer, badiiy-loyihaviy, interyer, arxitektura.*

\*\*\*

***Аннотация.** Человечество всегда стремилось к красоте. Красота ведет человечество к гармоничному, глубокому мышлению. Это обеспечит здоровую окружающую среду во всех отношениях. Основная задача искусства, будь то прикладное или изобразительное искусство, состоит в том, чтобы развить у человека эстетический вкус, избавиться от различных эмоциональных потрясений или привести к осознанию.*

***Ключевые слова:** красота, интерьер, арт-дизайн, интерьер, архитектура.*

\*\*\*

***Annotation.** Mankind has always aspired to beauty. Beauty leads humanity to harmonious, deep thinking. This will ensure a healthy environment in all respects. The main task of art, whether it is applied or visual art, is to develop a person's aesthetic taste, to get rid of various emotional shocks, or to lead to awareness.*

***Key words:** beauty, interior, art design, interior, architecture.*

Insoniyat azal-azaldan go'zallikka intilib kelgan. Go'zallik insoniyatni barkamol, teran fikrlash sari yetaklaydi. Bu esa xar jixatdan sog'lom muxit yaralishini ta'minlaydi. San'atning asosiy vazifasi, u xox amaliy, xox tasviriy san'at bo'lsin, insonning estetik didini rivojlantirib, turli xil ruxiy zarbalardan xalos etish, yoxud ogoxlik sari yetaklashdir.

Bugungi kunda san'at soxalari orasida interyer dizayni xam jadallik bilan rivojlanib kelmokda. Ushbu san'at turi insonning kundalik xayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgani bois, unga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Jamoat binolaridan biri - restoranlar misolida olib qaraydigan bo'lsak, iste'molchilarda nafaqat taomlar ro'yxati, balki bino interyeri xamda yon atrofidagi barcha jixozlariing ko'rinishi xam qiziqish uyg'otadi. Insonning qabul qilish psixologiyasi shundayki, taom bobida bu oshxonaga yetadigani bo'lmasa-da, agar uning ko'rinishi qiziqarli va zamonaviy talablarga javob bermasa, bu oshxonaling mijozlari u qadar ko'p bo'lmaydi. Yoki aksincha, chiroyli, barcha qulayliklarga ega zamonaviy

oshxonadagi oddiy taom xam mijozga kulinariyaning eng yuqori maxsuloti bo'lib tuyuladi.

Xozirgi paytda interyer soxasi ko'plab tur va uslub yo'nalishida rivoj topib bormoqda. Shuni xam ta'kidlash joizki. interyer dizayni soxasida xozir sharqona uslub yetakchi uslublardan biri bo'lib kelayotir. Yurtimiz ijodkorlari ayniqsa, interyer dizaynerlari binolarning ichki va tashqi ko'rinishida milliy madaniyatni saqlab qolish yo'llarini izlamoqdalar. Xozirgi paytda san'atning barcha turida badiiy meros zamonaviy yo'nalish bilan xamoxanglikda rivojlanib bormoqda. Milliy motivlardan foydalanib, zamonaviy shaxar qurilishi izchillik bilan olib borilmoqda.

Toshkent shaxri istiqlol yillarida yangi me'moriy inshootlar qurilishi bilan yangicha ko'rinish kasb eta boshladi. Zero, me'morchilik xam san'atning boshqa turlari singari o'zida davlat tarixini, xalqning madaniy-ma'naviy mavqeyini, turmush tarzi, estetik qarashlarini namoyon etadi. SHunig uchun bu san'at tarix solnomasi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi. Istiqlol yillarida jamiyatning qayta shakllanishi va rivojlanishi jarayonida me'morchilik san'ati xam rivojlandi va texnikaniy tomondan o'sdi.

Toshkent shaxri va viloyatlarda keyingi yillarda qurilgan inshootlarda go'zallik va boshqa estetik jixatlar bilan birga, maqsadga muvofiqlik va tejamkorlik talablari xam ko'zda tutilgan. "Qulay, arzon, mustahkam va go'zal" shiori qadim zamonlardan mavjud. Shu shior me'morchilikning asosiy qonunini o'zida mujassamlashtirgan. Istiqlol yillarida shakllangan yangi g'oya va mazmun bino arxitekturasi shakllanib, badiiy obrazga aylanadi. Arxitekturadagi bu obraz davlatning siyosiy va iqtisodiy kuch-quvvatini, jamiyat xarakterini, mafkurasini o'zida aks ettiradi.

Jamoat binolari xar xil xayotiy jarayonlar: ta'lim va tarbiya, jamoatga xizmat qilish, madaniyat, sport, dam olish va shu kabilarni o'tqazish madsadida yaratilali. Bino va inshootlarning umumiy kompozitsiyasida interyerning adamiyati katta bo'lib, u eng qulay xayotiy muhitni yaratib berish bilan birga, insonning nafosatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun xam xizmat qiladi.

Xozirgi paytda dizayn badiiy tafakkurni, texnik va gumanitar bilimlarni o'zida jamlagan badiiy-loyihaviy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon barcha sohalardagi kabi inson bilan bog'liq jismoniy dunyoni shakllantirishga qaratilgan. Dizaynning markaziy muammosi - estetik uyg'unlikdagi madaniy-jismoniy dunyoni yaratish. Binobarin, ushbu jismoniy dunyo shaxsning jamiyatdagi madaniy va ruxiy-axloqiy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Xozir o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan badiiy bezash ishlarini yanada takomillashtirsh masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu ishlarning barchasi o'quv yurtidagi ta'lim - tarbiya ishlariga ijobiy ta'sir etadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, interyer insonning emotsional xolati, diqqatini jamlab olishiga va aqliy mehnat quvvatiga xam ta'sir etadi. Ammo o'quv binosi interyerini bezatishda mavjud imkoniyatlardan foydalaniladi va xar doim bo'lmasa-da, muammoning ruxiy kelib chiqish sabablariga e'tibor beriladi.

Xar bir ota-ona farzandini maktabga jo'natar ekan, unda o'qishga va bilimga qiziqish uyg'onarmikan, deb umid qiladi. O'qituvchilar xam o'quvchilardan shuni kutadi. Bunga erishish uchun ma'lum ruxiy muxit yaratish kerak. O'quv xonalariga bezak tanlash orqali xam ushbu maqsadga erishish mumkin.

Interyerni badiiy bezashda amaliy bezak san'atning yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ xaykaltaroshlik, mozayka, vitraj na boshqa turlaridan foydalaniladi. Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo'llashlan ko'zlanadigan maqsad - ta'lim va tarbiya maskani bo'lmish o'quv yurti interyerining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq yoritshi, o'quvchilarda bu san'atga qiziqish uyg'otish va san'at sirlarini o'quvchilar uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq qilishdir.

Afsuski ba'zi o'quv yurtlarining interyerlarini badiiy bezashda g'oyat jiddiy nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Amaliy bezak san'atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog'lanmagan ayrim stendlar, devoriy bannerlar interyerining ko'rinishini buzmoqda.

Rassom yoki dizayner muayyan ishni bajarish jarayonida o'zining shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan xolda, yechimlar qabul qiladi. Saviyasi yetarli bo'lsa, rassom va dizaynerning sezgiga asoslangan estetik baxo berish qobiliyati ijobiy samara beradi. Biroq katta xajmdaga badiiy loyixalashda, uni amalga oshirish texnik imkoniyatining kengayishi tufayli faqat sezgi yoki empirik bilimga asoslanib qolish xam o'zini unchalik oqlamaydi.

Badiiy yechim ifodasining kengayishi bilan bog'liq xolda, texnologik imkoniyatlarning rivojlanishi ko'pincha ma'nodorlikning axamiyati sustlashishiga, oddiygina bezatish bilan almashtirilishida, interyerining uslubiy yechimiga asoslanib qolishga olib keladi. Ular asossiz, muxitning o'ziga xosligini xisobga olmagan xolda ishlatiladi. Interyerining estetik omillarini rivojlantirishda ilmiy asoslash muxim axamiyat kasb etdi. Bu, ayniqsa. tarixiy uslubini yo'qotayotgan binolar interyerlarida namoyon bo'ladi. Bunday xolatda asosiy e'tiborni ob'yektiv baxolashning ilmiy usullariga qaratish, eskirgan g'oyalarini chetga surib, asosga ega variantlarni ilgari surish muximdir.

Yurtimizda o'quv yurtlari interyerlarini badiiy bezashda amaliy bezak san'atining naqqoshlik, yog'och na ganch o'ymakorligi kabi turlari ko'p qo'llanilmoqda. San'atning bu turlari qadim - dan e'zozlanib, juda ko'p binolarni bezashda qo'llanilgan. Samarqanddagi Registon majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi, Buxoroda Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Islomxo'ja

minorasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi kabilar bunga misoldir.

Yaqin o'tmishda xam ma'muriy, turar joy va boshqa binolarni badiiy bezashda amaliy san'atning ushbu turlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek davlat akademik katta teatri, Toshkent davlat sirki binolari va x.k. Toshkent metrosining "Bunyodkor" bekatida naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, "Chilonzor" bekatida spool dekorativ figuralar, "Alisher Navoiy" bekatida amaliy bezak san'atining bir necha turi keng qo'llanilgan. Bunday ishlarni respublikaning boshqa shaxarlaridagi qator binolarda xam ko'rish mumkin. O'quv yurtlarini badiiy bezashda amaliy bezak san'ati turlaridan biri - naqqoshlik ko'p uchraydi. Naqqoshlikda ishtirok etadigan elementlar tabiat ne'matlari: barg, gul, g'uncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va boshqalarning stillashtirilgan shaklidir. Bundan tashqari, badiiy bezash ishlarida keramikadan xam keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, turli rel'eflar, gultuvak kabi bezaklar, eng avvalo, o'quvchilarning milliy ruxdagi estetik tarbiyasini takomillashtirishda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat binolari va inshootlarni milliylik ruxida bezatishning o'rni benixoya katta bo'lib, u ichki makonni tashkil qilishda muxim rol o'ynaydi. U arxitektura singari o'zaro bog'lanishlarning tizimi sifatida insonning jamoat va shaxsiy ehtiyojlarini, jamiyatning g'oya va estetik qarashlarini, shaxarsozlik va tabiiy sharoitlarini, moddiy-texnikaviy ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi.

Muxit interyeri jonli, o'zgaruvchan, o'zida go'zallik va funkcionallikni aks ettirgan moddiy shakllarning yig'indisi bo'lishi lozim.

Xozirgi paytda binoning ichki va tashqi qismlarini bezatishda asosiy e'tibor uning mavzu va mazmun jixatidan tartibli bo'lishiga emas, balki qay darajada milliylik bilan sug'orilgan zamonaviy ko'rinishni aks ettirishda qaratilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekistan, 1017. - 488 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T.:O'zbekiston, 2017.-1046.

3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

4. Xudoyberdiyev, M. (2021). "Manzara rangtasvirini" o'qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).

5. Xudoyberdiyev, M. (2021). Umumiy o'qitish tizimida tasviriy san'at o'qitish fanini o'qitishning ahamiyati. *Физико-технологического образование*, (5).
6. Жабборов, А. Ж., & Пардаев, Б. А. (2020). Обучение в рамках технологического и трудового образования. *Научное знание современности*, (1), 19-22.
7. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
8. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
9. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta'limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
10. Boltaboevich, B. B., & Ogiloy, K. (2008). Master of historical portrait genre, a teacher who created a school in the field of fine arts people's artist of Uzbekistan professor Malik Nabiev (1906-2008)